ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA 2022-YILDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

MAKTABGACHA TA'LIMNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Maktabgacha ta'lim bo'yicha press-reliz – bu, sohadagi rivojlanish tendensiyalarini kuzatib borish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu press-relizda, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishini tavsiflovchi va bu sohaga boshqacha nuqtai nazardan qarashga imkonini beruvchi rasmiy statistik ma'lumotlar keltirilgan.

Press-relizning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim sohasidagi hozirgi holatni aks ettirish, taqdim etilayotgan maktabgacha ta'lim sifatiga, barqaror rivojlanishga erishish yo'lidagi natijalar sarhisobi, shunungdek, farzandlarimizning ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim bola hayotidagi eng muhim bosqich bo'lib, u bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shaxsning shakllanishiga, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishiga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga ta'sir qiladi va ularning kelajagini belgilaydi. Garchi bu bolalar rivojlanishining turli sohalari bo'lsa-da, ular o'zaro bog'liqdir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim, ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi va uning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.

Press-relizda maktabgacha ta'lim tizimining turli jihatlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ulardagi bolalar soni, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan pedoglar va tarbiyachilar soni, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari kabi ma'lumotlar keltirilgan.

Press-relizni tayyorlash uchun tegishli vazirliklarning statistik hisobotlari va idoraviy ma'lumotlari to'plandi. Olingan ma'lumotlar maktabgacha ta'lim sohasidagi mavjud vaziyatni tahlil qilish va obyektiv baholashga, ushbu soha samaradorligini baholashga va muammoli masalalarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu press-relizda taqdim etilgan ma'lumotlar, demograflar, iqtisodchilar, statistiklar, ommaviy axborot vositalari, ta'lim tashkilotlari, ota-onalar va ijtimoiy siyosat sohasida qarorlar qabul qilishi uchun foydali bo'ladi.

ANDIJON VILOYATIDA 2022-YIL YAKUNI BO'YICHA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SONI

Andijon viloyatida 2022- yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 765 tani tashkil etdi. Mulkchilik shakliga ko'ra ulardan 549 tasi yoki 71,8 % davlat va qolgan 216 tasi yoki 28,2% nodavlat MTT lari hisoblanadi.



O'tgan 2018- yil yakuni bo'yicha viloyatda 456 ta MTT lari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan ular soni 217 taga yoki 57,5 % ga ko'payganligini kuzatish mumkin.



ANDIJON VILOYATI SHAHAR VA TUMANLARI KESIMIDA 2022- YIL YAKUNI BO'YICHA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SONI, *(birlik)*



Andijon viloyatida 2022- yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 765 tani (nodavlat MTT ni qo'shgan holda) tashkil etdi. Ulardan Andijon shahrida joylashgan MTT lar soni 89 ta, Shahirixon tumanida 74 ta hamda Asaka tumanida 68 tadan iborat bo'lib, ushbu tumanlar viloyatdagi eng yuqori ko'rsatkichni, hamda Xonobod shahridagi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 10 ta, Ulug'nor tumanida 21 tadan iborat bo'lib ular viloyat bo'yicha eng past ko'rsatkichni qaytd etdilar.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI O'RINLAR VA BOLALAR SONI



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan MTT larida 2022- yil yakuni bo'yicha bolalarni qabul qilish uchun mo'ljallangan o'rinlar soni 147 379 tadan iborat. Ularda tarbiyalanayotgan bolalar soni 146 288 nafarni tashkil etdi.

2022- yil yakuni bo'yicha tarbiyalanuvchi bolalar sonini o'tgan 2018- yil bilan taqqos-laganda ular 2,1 marotabaga ko'payganligini kuzatish mumkin.

Viloyat bo'yicha 100 ta o'ringa 99 nafar bola to'g'ri keldi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI O'RINLAR VA BOLALAR SONI,
(2022- yil yakuni, nafar)



2022- yil yakunida tarbiyalanuvchi bolalar uchun o'rinlar soni Andijon shahrida faoliyat ko'rsatayotgan maktabgacha ta'lim tashkilot-larida 19 855 ta, Shahrixon tumanida 16 034 ta va Asaka tumanida 14 953 tadan iborat bo'lib, viloyat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni, shuningdek, Ulug'nor tumanida 2 985 ta va Xonobod shahrida 1 993 tani tashkil etgan holda eng past ko'rsatkichni qayd etdilar.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI BOLALARNING GENDER TAQSIMOTI *(2022-yil yakuni, nafar)*



2022-yil yakunida viloyatdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 146288 nafar bolalardan 76067 nafari o'g'il bolalar va qolgan 70221 nafari qiz bolalardan iborat.

O'tgan 2018-yilga nisbatan tarbiyalanuvchi o'g'il bolalar soni 80,1 % ga, hamda qiz bolalar soni 92,5 % ga ko'payganligini kuzatish mumkin.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI BOLALARNING SHAHAR VA TUMANLAR BO'YICHA GENDER TAQSIMOTI

(2022- yil yakuni, nafar)



- O'g'il bolalar
- Qiz bolalar

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SONI, *(birlik)*

2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2021-y
34	24	166	174	216

Andijon viloyatida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan bir qatorda xususiy sektor ham rivojlanib bormoqda. 2022- yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 216 tadan iborat bo'lib, ular viloyatdagi jami yuridik maqomiga ega jami MTT larining 28,2 % ni tashkil etadi.

O'tgan 2018- yil bilan taqqoslaganda ular soni 182 taga yoki 6,4 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin.

Viloyatdagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarni qabul qilish uchun mo'ljallangan o'rinlar soni 24 480 birlikni tashkil etgan holda, 100 o'ringa to'g'ri keladigan bolar soni 95 nafadan iborat.

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING SHAHAR VA TUMANLAR KEKIMIDAGI SONI, *(birlik)*

- Andijon sh. - 32
- Xonobod sh. - 3
- Oltinko'l - 16
- Andijon - 15
- Asaka - 19
- Baliqchi - 14
- Bo'ston - 7
- Buloq boshi -11

- Jalaquduq - 21
- Izboskan - 15
- Qo'rg'ontepa - 13
- Marhamat - 16
- Paxtaobod - 7
- Ulug'nor - 4
- Xo'jaobod - 5
- Shahrixon - 18

2022- yil yakuni bo'yicha viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 216 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan 32 tasi viloyat markazi Andijon shahrida, 21 tasi Jalaquduq tumanida va 19 tasi Asaka tumanida joylashgan bo'lib, viloyat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni, shuningdek, Xonobod shahrida 3 ta, Ulug'nor tumanida 4 ta va Xo'jaobod tumanida 5 tadan iborat bo'lib viloyat bo'yicha eng past ko'rsatkichni qayd etdilar.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini o'tgan 2021- yil bilan taqqoslaganimizda ular soni 42 taga yoki 24,1 % ga ko'payganligini kuzatish mumkin.

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI TARBIYALANUVCHI BOLALAR SONI, *(nafar)*

Andijon viloyatida joylashgan nodavlat ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchi bolalar soni 2022- yil yakuni bo'yicha 23 248 nafarni tashkil etdi. Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan jami maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (yuridik maqomga ega bo'lgan) tarbiyalanayotgan bolalarning 15,9 % nodavlat ta'lim tashilotlari hissasiga to'g'ri keladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini o'tgan 2018- yil bilan taqqoslaganimizda ular soni 21 591 nafarga yoki 14 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin.



Ma'lumot uchun

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti **— qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.**

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI TARBIYALANUVCHI BOLALAR SONI, *(nafar)*

	Jami tarbiyalanuvchi bolalar	Ulardan O'g'il bolalar	Qiz bolalar
Viloyat bo'yicha	**23 248**	**12 334**	**10 914**
Andijon sh.	3110	1648	1462
Xonobod sh.	296	141	155
tumanlar			
Andijon	1312	715	597
Asaka	2523	1371	1152
Baliqchi	1579	776	803
Buloq boshi	858	441	417
Bo'ston	551	322	229
Jalaquduq	2382	1263	1119
Izboskan	1796	973	823
Marhamat	2375	1201	1174
Oltinko'l	1463	754	709
Ulug'nor	259	118	141
Paxtaobod	1289	698	591
Xo'jaobod	547	323	224
Shahrixon	2025	1139	886
Qo'rg'ontepa	883	451	432

2022- yil yakunida nodavlat ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan jami 23 248 nafar bolalardan 12 334 nafarini yoki 53,1 % ni o'g'il bolalar va qolgan 10 914 nafarini yoki 46,9 % ni qiz bolalar tashkil etdi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOG XODIMLAR SONI,
(2022- yakyni, nafar)

2022-y	12236
2021-y	11757
2020-y	9977
2019-y	9431
2018-y	7226

Andijon viloyatida 2022- yil yakuni bo'yicha MTT larida xizmat qilayotgan pedagog xodimlar soni jami 12 236 nafarni tashkil etdi. Ulardan 11 993 nafari yoki 93,1 % ayollardan iborat. Pedagog xodimlarning umumiy sonidan 3 410 nafari (27,9%) oliy ma'lumotga hamda qolgan 8 826 nafar xodimlar (72,1 %) o'rta-maxsus ma'lumotga ega.

Pedagog xodimlar soni o'tgan 2018- yil yakuni bo'yicha jami 7 229 nafarni tashkil etgan. 2022- yil yakuni bilan ularni taqqoslaganimizda 5010 nafarga ko'payganligini kuzatish mumkin.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOG XODIMLAR SONI,
(2022- yakyni, nafar)

- Andijon sh. - 1629
- Xonobod sh. - 142
- Oltinko'l - 593
- Andijon - 610
- Asaka - 1363
- Baliqchi - 978
- Bo'ston - 466
- Buloq boshi - 520

- Jalaquduq - 848
- Izboskan - 953
- Qo'rg'ontepa - 767
- Marhamat - 728
- Paxtaobod - 926
- Ulug'nor - 250
- Xo'jaobod - 341
- Shahrixon - 1122

Andijon viloyatida 2022- yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmat qilayotgan jami 12 236 nafar pedagog xodimlardan 6 783 nafari yoki 55,4 % qishloq joylardagi MTT larida faoliyat olib boradilar.

Mutaxassisligi bo'yicha 3 410 nafar oliy ma'lumotli pedagog xodimlardan 3 304 nafari pedagog ma'lumotiga hamda 8 826 nafar o'rta ma'lumotli xodimlardan 6 668 nafari pedogogik diplomiga ega.

Pedagog xodimlar soni Andijon shahrida joylashgan MTT larida 1 629 nafar, Asaka tumanida 1 363 nafar va Shahrixon tumanida 1 122 nafarni tashkil etgan holda viloyat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni, viloyatning Xonobod shahridagi MTT larida 142 nafarni hamda Ulug'nor tumanida 250 nafarni tashkil etgan holda eng past ko'rsatkichni qayd etdilar.

NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOG XODIMLAR SONI, *(nafar)*



2022- yil yakuni bo'yicha nodavlat MTT larida xizmat qilayotgan pedagog xodimlar soni jami 2 116 nafarni tashkil etdi. Ulardan 2 059 nafari yoki 97,3 % ayollardan iborat. Pedagog xodimlarning umumiy sonidan 552 nafari (26,1%) oliy ma'lumotga, hamda qolgan 1 564 nafar xodimlar (73,9 %) o'rta-maxsus ma'lumotga ega.

Pedagog xodimlar soni o'tgan 2018- yil yakuni bo'yicha jami 180 nafarni tashkil etgan. 2022- yil yakuni bilan ularni taqqoslaganimizda ular soni 1 936 nafarga, yoki 11,8 barobarga ko'payganligini kuzatish mumkin.



3-6 YOSHLI AHOLINING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BILAN QAMRAB OLINISHI, *(foizda)*



2022- yil yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 3-6 yoshli aholini maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi (faqat yuridik maqomiga ega bo'lgan MTT larida tarbiyalanayotgan bolalar inobatga olinganda 52,5 % ni tashkil etdi. Ulardan 51,8 % o'g'il bolalar va qolgan 53,2 % qiz bolalar hissasiga to'g'ri keladi.



Andijon viloyatida 2022- yil yakuni bo'yicha 3-6 yoshli aholini maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan qamrab olinishi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi oilaviy nodavlat MTT larida tarbiyalanayotgan bolalarni qo'shgan holda 77,9 % ni tashkil etdi.

3-6 YOSHLI AHOLINING MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI BILAN QAMRAB OLINISHI, *(foizda)*



Viloyat bo'yicha

2022- yil 52,5 %

2021- yil 48,5 %

2022- yil yakunida 3-6 yoshli bolalarni MTT lari bilan qamrab olinishi viloyat bo'yicha 52,5 % tashkil etdi. Viloyatning Bo'ston tumanida ushbu ko'rsatkich 74,3 %, Xonobod shahrida 64,8 % ga to'g'ri kelib eng yuqori natijani qayd etdi, Andijon tumanida bu ko'rsatkich 42,1 % va Oltinko'l tumanida 44,4 % ni tashkil etgan holda viloyat bo'yicha eng past ko'rsatkich deb baholandi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI TASARRUFIDAGI OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI

2022- yil yakuni bo'yicha Andijon viloyatida 2 239 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (yakka tartibdagi jismoniy shaxslar) faoliyat ko'rsatgan. Ularda jami 70 300 nafar bolalar tarbiyalanmoqda. Tarbiya-lanayotgan bolalarning 36 508 nafari yoki 51,9 % o'g'il bolalar va qolgan 33 792 nafari yoki 48,1 % qiz bolalardan iborat.

OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI BOLALARNING YOSHI BO'YICHA TAQSIMLANISHI, %



ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti – belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'qitish, ularga qarab turish va ularni parvarish qilishni hamda sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni – yil oxirida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar soni.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 100 o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonini ulardagi o'rinlar soniga bo'lib 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar bilan ta'minlanganligi (1000 bolaga to'g'ri keladigan o'rinlar) – maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rinlar sonini 3-6 yoshdagi aholi soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichi – maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 3-6 yoshdagi bolalarni mazkur yoshdagi aholi soniga nisbatini ifodalaydi.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlariga tuman, shahar, viloyat, respublika "Barkamol avlod" bolalar markazlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, sog'lomlashtirish oromgohlari va boshqa tashkilotlar kiradi.

Press-relizni tayyorlash uchun mas’ul:
Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

Andijon viloyati statistika boshqarmasi

Manzil: Andijon shahar, Milliy Tiklanish ko‘chasi, 36- “A” uy

Tel.: +99874 228-48-51

e-mail:sdg@andstat.uz

www.andstat.uz

facebook.com/andstataxborot